XALQ CHOLG‘ULARIDA JAMOAVIY IJROCHILIK TURLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI MASALASIGA DOIR (O‘ZBEKISTON MISOLIDA)

Firuza Abdurahimova,
O‘zbekiston davlat konservatoriyasi
“Orkestr dirijorligi” kafedrasi professori,
O‘zbekiston Respublikasi san’at arbobi

Musiqiy ta’lim — bolalar va yoshlarning ma’naviy dunyosini shakllantirishda muhim o‘rin tutadigan ta’limning ajralmas tarkibiy qismlaridan biridir. Bejizga “musiqa so‘z tugagan joydan boshlanadi”, deb aytilmaydi. Darhaqiqat, fan va adabiyotning buyuk namoyandalari tomonidan musiqa haqida bildirilgan fikrlar tinglovchilarda unga nisbatan qiziqish uyg‘otadi hamda ularda musiqaning ulug‘vorligi bilan bevosita muloqotga kirishish istagini shakllantiradi. O‘zbekistonda musiqiy ta’limga o‘tgan asrning 20-yillaridan boshlab alohida e’tibor qaratila boshlangan. Bugungi kunda bolalar 4 yoshdan boshlab maktabgacha ta’lim muassasalarida musiqa cholg‘ularida ijro etish bilan tanishmoqdalar; ushbu ishning samarasi sifatida ko‘pgina ijrochilar, musiqashunos olimlar, kompozitorlar va dirijyorlardan iborat qator mashhur va nufuzli mutaxassislar avlodi voyaga yetdi. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzirida Madaniyat ta’limi markazining tashkil etilishi va uning huzurida “Madaniyat ta’limi” ixtisoslashtirilgan jurnalining ta’sis etilganligi, shubhasiz, ta’lim jarayonlarining barcha bosqichlarida yanada chuqurlashishiga, mazkur sohada ilmiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa musiqa sohasidagi kasbiy mahoratni yangi, yanada yuksak bosqichga ko‘tarish imkonini beradi. Shu munosabat bilan, O‘zbekistonda jamoaviy ijrochilik masalasi yuzasidan o‘z mulohazalarimni bayon etishni maqsadga muvofiq deb bilaman. Zero, mazkur jarayon yosh avlodni tarbiyalash sohasidagi dolzarb yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Ma’lumki, O‘zbekistonda jamoaviy ijrochilik an’analari miloddan avvalgi davrlardayoq yuzaga kelgan. Ular o‘rta asrlarning mashhur allomalari asarlarida nazariy jihatdan asoslab berilgan. Shubhasiz, qadim zamonlarda cholg‘u ansambllarining paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan omillardan biri — musiqa cholg‘ularining yetarli darajada konstruktiv rivojlanganligi bo‘lib, ular rang-barangligi hamda ma’lum ma’noda ijrochilik imkoniyatlarining mukammal-

ligi bilan ajralib turgan. Bu esa birgalikda ijro etish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratgan. O‘sha davrlarda ansambllar turlarining xilma-xilligi ularning xalq hayotida marosimlar hamda turli bayram tantanalariga muvofiq ravishda faol qo‘llanilganidan dalolat beradi. Ko‘cha sozandalari chiqishlari, uy sharoitidagi musiqiy ijrochilik, og‘zaki an’ana asosidagi professional jamoalar — bularning barchasi XX asrgacha bo‘lgan davrda o‘zbek cholg‘u ijrochiligi madaniyatining tarkibiy qismi bo‘lib kelgan.

1930-yillarda Markaziy Osiyo respublikalari, Qozog‘iston va Ozarbayjonda nota yozuviga asoslangan musiqani ijro etishga moslashgan yangi turdagi ansambllar shakllana boshladi. Mazkur davrdan e’tiboran xalq cholg‘ularida ijrochilikning ikki turi — og‘zaki an’anaga tayanuvchi an’anaviy yo‘nalish hamda nota yozuviga asoslangan akademik yo‘nalish — birgalikda mavjud bo‘la boshladi. Ushbu ikki yo‘nalish repertuarida ham sezilarli tafovutlar kuzatiladi. Agar birinchi tur negizida ular vakillik qilgan xalqning og‘zaki an’anadagi professional musiqasi va folklori yotgan bo‘lsa, akademik ansambllar va orkestrlar repertuarida asosan kompozitorlik ijodi, shuningdek, qayta ishlangan xalq musiqasi ustuvorlik qilgan. Aynan shu omil xalq cholg‘ularida ijrochilik madaniyatini xalqaro miqyosga olib chiqishga xizmat qildi. Shunga qaramay, ijrochilikning yangi turi deyarli barcha respublikalarda joriy etilishi jarayonida murakkab va og‘riqli kechdi hamda musiqashunoslar va ijrochi musiqachilarning muayyan qismi tomonidan e’tirozlarga sabab bo‘ldi. Ayniqsa, 1950–60-yillarda Markaziy Osiyo, Qozog‘iston va Ozarbayjonda mazkur jarayon keskin bahs-munozaralar bilan kechgan.

Biroq hayotning o‘zi xalq cholg‘ularida akademik ijrochilik yo‘nalishining mavjud bo‘lishi asosli va zarur ekanini ko‘rsatdi. Uning ommaviy musiqiy ta’lim tizimida qo‘llanilishi, turli ko‘rinishdagi ko‘p ovozli ansambllar va orkestrlarning shakllanishi hamda mahalliy yoshlar orasida jamoaviy ijrochilik madaniyatining rivojlanishi aynan shu jarayonning ijobiy natijasi bo‘ldi.

Jamoaviy musiqiy ijrochilik — o‘quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishning muhim shakllaridan biridir. U musiqiy dunyoqarashni sezilarli darajada kengaytiradi hamda musiqachi

uchun zarur bo‘lgan qator sifatlarni shakllantiradi: nafaqat o‘z ijrosini, balki birgalikdagi ijroni ham tinglay bilish, musiqiy asarning uyg‘unlikdagi jarangini anglash va his etish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Shuningdek, u ijodiy faollik va tasavvurni rag‘batlantiradi, o‘z partiyasini ijro etishda burch va mas’uliyat hissini kuchaytiradi, hamjihatlik tuyg‘usini tarbiyalaydi. Ansambl (orkestr) tarkibida ijro etish ritmik tuyg‘uni rivojlantirish jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi, o‘quvchida to‘g‘ri sur’at sezgisini shakllantiradi. Bu esa nafaqat jamoaviy, balki yakka ijrochilik faoliyatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ansambl ijrosi jarayonida jamoa a’zolari ijroning sinxronligini ta’minlashni o‘rganadilar; bunda barcha ijrochilar tomonidan tovush va pauzalarning mutlaq aniqlik bilan bir vaqtda bajarilishi nazarda tutiladi. Mazkur sifat ijrochilar o‘rtasida sur’at va ritmik pulsni yagona tarzda anglash va his etishga erishishga xizmat qiladi. Ansambl (orkestr)da ijro etish o‘quvchi-musiqachining maxsus qobiliyatlarini jadal rivojlantiradi: musiqiy eshituv, ritm tuyg‘usi, xotira, harakat-motor (texnik) ko‘nikmalar takomillashadi. Uning joziba-dorligi bois boshlang‘ich bosqichda ijro apparatini shakllantirish nisbatan oson va tabiiy kechadi;

o‘quvchilar tovush hosil qilishning asosiy usullarini tabiiy ravishda o‘zlashtiradilar, turli faktura turlari bilan tanishadilar. Shunday qilib, ansambl (orkestr)da ijro etishning ahamiyati nihoyatda kattadir. U ritmni his etish, faoliyatga ongli munosabatda bo‘lish, mas’uliyatni anglash, nota yozuvini tez va puxta o‘zlashtirish hamda musiqiy shakllarning tuzilishini tushunishga o‘rgatadi. Bundan tashqari, u bolalar va yosh musiqachilar uchun nihoyatda qiziqarli bo‘lib, ularda musiqaga bo‘lgan muhabbat va mashg‘ulotlarga intilish hissini kuchaytiradi. [1]

1996-yildan buyon har yili o‘tkazib kelinayotgan xalq cholg‘ulari ko‘p ovozli ansambl va orkestrlarining “Navro‘z sadolari” festivali aynan shu maqsadlarga xizmat qilib, ma’rifiy-ta’limiy yo‘nalishga ega. Loyiha har yili o‘tkazilib, O‘zbekistonda yil sayin xalq cholg‘u ansambllari va orkestrlarining soni ortib borayotganini ko‘rsatdi. Mazkur tadbirning asosiy vazifasi respublikada milliy cholg‘ularda ijrochilikni faollashtirish, aholining musiqiy savodxonligini oshirish, bolalar va yoshlar o‘rtasida intellektual rivojlanish hamda ma’naviy tarbiyani

kuchaytirishdan iboratdir. O‘z faoliyati davomida festival ta'sir doirasini sezilarli darajada kengaytirdi: unda O‘zbekistonning deyarli barcha viloyatlaridan 3 yoshdan 23 yoshgacha bo‘lgan musiqachilar ishtirok eta boshladilar. Natijada nafaqat muvaffaqiyatli chiqishlar, yangi iste'dodlarning kashf etilishi va repertuarning boyishi ta'minlandi, balki respublikada yangi jamoalarning shakllanishiga ham zamin yaratdi. Ishtirokchilar geografiyasining kengaygani alohida e'tirofga sazovordir. 2015-yildan boshlab loyiha xalqaro maqomga ega bo‘ldi, chunki unga Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Mongoliya hamda Rossiya Federatsiyasi jamoalari ham qo‘shildi.

Festivalni tashkil etish va uning tashabbuskori sifatida "So‘g‘diyona" davlat xalq cholg‘ulari kamer orkestri ishtirok etdi. Ushbu tashabbus mamlakatimizda akkreditatsiyadan o‘tgan xalqaro tashkilotlar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi: "Sog‘lom avlod uchun" xalqaro nodavlat xayriya jamg‘armasi va uning bosh direktori Svetlana Tursunhodjaevna Inamova, Shvetsariya Elchixonasi huzuridagi Shveysariya Hamkorlik Kengashi va uning rahbari Mahbuba Sayidahmedova, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, maktabgachava maktab ta'limi vazirligi. Keyinchalik, loyiha amalga oshirilishiga Birlashgan Millatlar Tashkiloti Axborot bo‘limi hamda O‘zbekiston Yoshlar ishlari agentligi ham jalb qilindi. Festival doirasida har yili milliy cholg‘ularni o‘qitish sohasida katta tajribaga ega yetakchi pedagoglar tomonidan ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiyalar va mahorat darslari tashkil etiladi.

"Navro‘z sadolari" festivalida ishtirok etish uchun arizalar soni ortgani sababli Tashkiliy qo‘mita ushbu tadbirni ikki bosqichda o‘tkazish qarorini qabul qildi: bir yilda — maktabgacha ta'lim muassasalari jamoalari va bolalar musiqa va san'at maktablari ansambllari hamda orkestrlari, keyingi yilda — ixtisoslashtirilgan san'at va madaniyat maktablari, kollejlari va oliy ta'lim muassasalarining jamoalari. Ushbu amaliyot o‘zini oqladi. Ishtirokchilar Toshkentga, O‘zbekiston Davlat konservatoriyasi Katta zalida sahnaga chiqish uchun kelishdan oldin, festivalning birinchi bosqichi o‘tkaziladigan viloyatlarda saralash jarayonida qatnashadilar. Natijada eng yaxshi

jamoalar Toshkentga keladi. 2015–2016-yillarda festivalda bolalar musiqa va san'at maktablari, litsey va kollejlaridan saralangan 77 jamoa ishtirok qilgan: shundan 27 tasi orkestr, 50 tasi ansambl bo'lib, jami 1132 nafar ishtirokchini birlashtirgan. 2017–2018-yillarda esa ishtirokchilar tarkibi 83 jamoani tashkil etdi, ulardan 31 tasi orkestr, 52 tasi ansambl bo'lib, jami 1332 kishini qamrab olgan. Ushbu kichik statistika shuni ko'rsatadiki, o'tgan vaqt davomida ishtirokchilar soni, shuningdek, orkestr jamoalari soni doimiy ravishda ortib bormoqda, bu musiqa va san'at maktablaridan boshlab san'at litsey va kollejlariga qadar kuzatiladi. "Navro'z sadolari" festivali nafaqat O'zbekistonda, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida musiqiy savodxonlikni oshirish va aholining umumiy madaniyatini rivojlantirish katalizatori sifatida xizmat qilmoqda.

Jamoaviy ijro, ansambl yoki orkestrda bo'lishidan qat'i nazar, qanchalik muhim ekanligi haqida men o'z fikrlarimni buyuk pedagog Vasiliy Aleksandrovich Sukhomlinskiy so'zlari bilan yakunlamoqchiman: birgalikda ijro etish "yodlash yoki eslab qolish uchun emas, balki fikrlash, bilish, kashf etish, tushunish, nihoyat, hayratlanish ehtiyoji uchun" bo'lishi kerak. [2]

Foydalangan adabiyotlar

1. Groznix P. A. "Jamoaviy ijrochilik o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishning bir shakli sifatida" [Matn] // Ta'limni rivojlantirish muammolari va istiqbollari: V Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari (Perm shahri, 2014-yil mart). — Perm: Merkuriy, 2014. — 150–151-bet.
2. Suxomlinskiy V. A. Tarbiya haqida. Moskva, 1982, 99-bet.